NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI
ILMIY AXBOROTNOMASI, [2026-9]
ISSN:2181-1458
ISSN:2181-0427

10.00.00-FILOLOGIYA
journal.namdu.uz
PHILOLOGICAL

LISONIY SHAKL VA MA'NONING ONTOLOGIK NEGIZI

Abdurazzoqov Eldor G' ofirjonovich
Namangan davlat universiteti dotsenti
Email: kontrol_07@gmail.com

Annotatsiya: *Mazkur maqola lisoniy belgining shakl va mazmun munosabatini ontologik masala sifatida ilgari suradi va uni izohlovchi substansial, relatsion hamda konstruktiv yondashuvlarni yagona konseptual maydonda qiyosiy tahlil qiladi. Tadqiqot lisoniy shakl va mazmunni nafaqat til tizimining ichki komponentlari, balki inson tafakkuri, madaniy tajriba va ijtimoiy-diskursiv muhitda shakllanuvchi mavjudlik tartibining ajralmas unsurlari sifatida asoslaydi. Tadqiqotda ushbu modellarning ontologik tafovutlari aniqlanib, shakl va mazmun munosabatini anglashda integrativ yondashuvning metodologik ustuvorligi asoslanadi.*

Kalit so' zlar: *ontologik talqin, shakl-mazmun dixotomiyasi, substansial yondashuv, relatsion semantika, konstruktiv ma'no modeli, kognitiv-diskursiv asos, semantik invariant, semiosfera.*

ОНТОЛОГИЧЕСКАЯ ОСНОВА ЯЗЫКОВОЙ ФОРМЫ И ЗНАЧЕНИЯ

Аннотация: *В статье рассматривается соотношение формы и содержания языкового знака как онтологическая проблема и в сравнительном плане анализируются субстанциальный, реляционный и конструктивный подходы, интерпретирующие данное соотношение в едином концептуальном поле. Исследование обосновывает лингвистическую форму и содержание как неотъемлемые элементы порядка существования, формирующегося не только в рамках языковой системы, но и в пространстве человеческого мышления, культурного опыта и социально-дискурсивной среды. В статье выявляются онтологические различия указанных моделей и аргументируется методологическое превосходство интегративного подхода в осмыслении взаимоотношения формы и содержания.*

Ключевые слова: *онтологическая интерпретация, дихотомия формы и содержания, субстанциальный подход, реляционная семантика, конструктивная модель значения, когнитивно-дискурсивная основа, семантический инвариант, семиосфера.*

THE ONTOLOGICAL FOUNDATION OF LINGUISTIC FORM AND MEANING

Abstract: *This article advances the relationship between form and meaning in the linguistic sign as an ontological problem and offers a comparative analysis of substantival, relational, and constructivist approaches within a unified conceptual framework. The study conceptualizes linguistic form and meaning as integral elements of an order of existence shaped not only within the linguistic system itself but also through human cognition, cultural experience, and the socio-discursive environment. The paper identifies the ontological distinctions among these models and substantiates the methodological priority of an integrative approach in understanding the relationship between form and meaning.*

Keywords: *ontological interpretation, form–meaning dichotomy, substantival approach, relational semantics, constructivist model of meaning, cognitive–discursive framework, semantic invariant, semiosphere.*

KIRISH

Lisoniy birliklarning shakl va mazmun munosabati tilshunoslik ilmining markaziy masalalaridan biri sifatida qaralib, u asosan semantik, strukturaviy va funksional talqinlar doirasida rivojlangan. Biroq mazkur munosabatning tub mohiyati lisoniy belgining mavjudlik tartibi hamda shakl va mazmunning shu tartibdagi ontologik maqomi bilan uzviy bog' liqdir. Ushbu ontologik asos til nazariyasining umumiy metodologik yo' nalishini shakllantiradi hamda ma'no, referensiya va tafakkur o' rtasidagi bog' lanishni talqin etishda tayanch nuqta vazifasini bajaradi.

Shakl va mazmun muammosi falsafa hamda tilshunoslik tarixida mavjudlik haqidagi umumiy ontologik qarashlar bilan chambarchas bog' liq holda shakllangan. Qadimgi yunon tafakkurida Platon tilni empirik voqelikni bevosita aks ettiruvchi vosita sifatida emas, balki g' oyaviy mohiyatlar bilan munosabatda bo' lgan nomlash tizimi sifatida talqin etadi [10, 386–388]. Aristotel esa tilni tafakkur va voqelik o' rtasida vositachilik qiluvchi mexanizm sifatida tushuntirib, so' z, tushuncha va referent o' rtasidagi aloqani mavjudlikni anglash jarayonining muhim tarkibiy qismi tarzida izohlaydi [1, 16–

17]. Ushbu ikki yo‘ nalish keyingi lingvistik va semiotik konsepsiyalar uchun ontologik tayanch vazifasini bajargan bo‘ lib, shakl va mazmun munosabatini nazariy jihatdan talqin qilishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etgan.

Zamonaviy tilshunoslikda shakl va mazmun muammosi yangi konseptual doirada kengayib, til faqat belgilar tizimi emas, balki inson ongida, ijtimoiy muhitda va madaniy tajriba doirasida faoliyat yurituvchi semantik mexanizm sifatida talqin etila boshladi [6, 9–12]. Shu asosda shakl va mazmunning ontologik maqomini aniqlash til birligining mohiyatini tasniflash bilan cheklanmay, uning mavjudlik mohiyatini, ma’noning qanday tashkil topishi va amal qilishini nazariy jihatdan asoslashga qaratildi [9, 131–133].

Mazkur maqola shakl va mazmun dixotomiyasini aynan ontologik rakursda ko‘ rib chiqishni maqsad qiladi. Tadqiqot lisoniy belgining mavjudlik asoslarini substansial, relatsion va konstruktiv yondashuvlar doirasida qiyosiy tahlil qilishga yo‘ naltirilgan bo‘ lib, ushbu modellarning metodologik imkoniyatlari va nazariy chegaralarini aniqlashni ko‘ zda tutadi. Bunday yondashuv shakl va mazmun munosabatini izohlashda integrativ metodologiyaning ahamiyatini ko‘ rsatish bilan birga, semantik invariant, sinonimiya hamda shakl va mazmun asimmetriyasi kabi murakkab lisoniy hodisalarni yanada izchil va chuqurroq tahlil qilish imkonini beradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Tadqiqot doirasida shakl va mazmun munosabatini izohlovchi falsafiy hamda lingvistik qarashlar ontologik pozitsiyalariga muvofiq tahlil qilinib, mavjudlikning turli darajalarida shakl-mazmun aloqasini talqin etishga qaratilgan nazariy yondashuvlar asosida tizimlashtiriladi. Bunday yondashuv shakl va mazmunni bir xil hodisaning muqobil ta’riflari sifatida emas, balki mavjudlik tartibining muayyan ontologik talqinlariga tayanuvchi izohlash mexanizmlari sifatida ko‘ rib chiqishga imkon beradi. Natijada, shakl va mazmun munosabatini tushuntirishda substansial tuzilma, munosabatlar sistemasi va kognitiv-konstruktiv jarayonlarga tayanuvchi uch asosiy nazariy yo‘ nalish ajratiladi. Ushbu tasnif mavjud ilmiy qarashlarning ontologik asoslarini aniqlash va ularning izohlash imkoniyatlarini qiyosiy tahlil qilish uchun analitik poydevor vazifasini bajaradi.

Substansial yondashuv lisoniy belgini ontologik jihatdan murakkab birlik sifatida talqin qiladi hamda shakl va mazmunni o‘ zaro uzviy bog‘ langan, biroq mavjudlik maqomi nuqtayi nazaridan farqlangan komponentlar sifatida izohlaydi. Ushbu pozitsiyaning falsafiy poydevori qadimgi yunon tafakkurida shakllangan bo‘ lib, Platon va Aristotel qarashlarida aniq ifodasini topadi. Platon «Kratil» dialogida tilni empirik hodisalarga ixtiyoriy tarzda biriktirilgan belgilar majmui sifatida emas, balki ularning g‘ oyaviy mohiyati bilan ichki aloqada bo‘ lgan nomlash tizimi tarzida talqin qiladi. Shu nuqtayi nazardan, so‘ z shakli g‘ oyaviy mohiyat (idea) bilan uyg‘ unlikda mavjud bo‘ lishi mumkin bo‘ lgan ontologik birlik sifatida qaraladi [10]. Aristotelning «Tafsir haqida» asarida esa so‘ z, tushuncha va referent o‘ rtasidagi munosabat ontologik jihatdan darajalangan semantik zanjir sifatida tushuntiriladi. Unga ko‘ ra, so‘ zlar tafakkurda hosil bo‘ ladigan aqliy tasavvurlarni ifodalaydi, bu tasavvurlar esa tashqi voqelikka ishora qiladi [1]. Shu tariqa, substansial yondashuv doirasida ma’no nisbatan barqaror ontologik tayanchga ega hodisa sifatida talqin qilinadi.

Zamonaviy tilshunoslikda ushbu talqin kognitiv yo‘ nalishlar doirasida qayta ko‘ rib chiqildi. Xususan, Ray Jackendoff til tizimini fonologik, sintaktik va semantik darajalardan tashkil topgan, o‘ zaro interfeyslar orqali bog‘ langan kognitiv strukturalar majmui sifatida tavsiflaydi. Mazkur yondashuv doirasida ma’no ongda shakllanadigan konseptual tuzilma sifatida tushuntiriladi [6]. Substansial ontologiyaning tashqi omillarga tayanuvchi kengaytmasini Hilary Putnam tomonidan ishlab chiqilgan semantik eksternalizm nazariyasida kuzatish mumkin. Ushbu qarashga ko‘ ra, so‘ z ma’nosining ontologik tayanchi subyektiv mental holatlar bilangina cheklanmay, tashqi fizik va ijtimoiy reallik bilan barqaror referensial bog‘ liqlik orqali belgilanadi [11].

Relatsion yondashuv shakl va mazmunni mustaqil ontologik mohiyatlar emas, til tizimidagi farqlanishlar orqali aniqlanadigan nisbiy pozitsiyalar sifatida izohlaydi. Bu yo‘ nalish strukturalizm an’anasi bilan uzviy bog‘ liq bo‘ lib, Ferdinand de Sossyur tomonidan ishlab chiqilgan lisoniy qiymat konsepsiyasiga tayangan holda shakllandi. Sossyurga ko‘ ra, lisoniy belgining ma’nosi til tizimi doirasida boshqa birliklarga nisbatan egallagan o‘ rni va hosil qiladigan differensial munosabatlar orqali belgilanadi [12]. Roman Jakobson ayni tamoyilni fonologik tahlil doirasida rivojlantirib, fonemani alohida tovush emas, balki oppozitsiyalar majmui sifatida tushuntiradi [7].

Relatsion yondashuv keyinchalik hermenevtika va semiotika sohalarida kengaytirildi. Jumladan, Hans-Georg Gadamer ma’noni tarixiy va kontekstual «tushunish ufqi» doirasida yuzaga keladigan hodisa sifatida talqin etadi [4]. Umberto Eko esa belgi ma’nosining kodlar va ijtimoiy konvensiyalar tizimi orqali shakllanishini asoslab, relatsion talqinning madaniy-semiotik o‘ lchovini chuqurlashtiradi [2].

Konstruktiv yondashuv shakl va mazmun munosabatini oldindan berilgan ontologik mohiyat emas, inson tafakkuri, tajribasi va ijtimoiy amaliyot jarayonida vujudga keladigan jarayonli hodisa tarzida tushuntiradi. Ushbu pozitsiyaning falsafiy manbalari Vilhelm von Humboldt qarashlarida ifodalangan. Olim tilni tayyor mahsulot emas, balki doimiy faoliyat – energeia sifatida talqin qilinadi. Uningcha, ma’no tashqi reallikdan tayyor holatda olinmaydi, balki til faoliyati davomida konstruksiya qilinadi [5]. Mazkur g‘ oya Edvard Sapir va Benjamin Li Vorf tomonidan ishlab chiqilgan til va tafakkur o‘ rtasidagi uzviy bog‘ liqlik konsepsiyalarida davom ettirildi [13]. Psixolingvistika doirasida esa Lev S.Vigotsky ma’noni

fikr va so‘ zning ijtimoiy-kognitiv rivojlanishi jarayonida shakllanuvchi dinamik hodisa sifatida asoslaydi [14]. Madaniy-semiotik yo‘ nalishda Yuriy Lotmanning semiosfera konsepsiyasi ma’noning individual belgilar yig‘ indisi emas, balki madaniy belgilar makonida doimiy qayta ishlab chiqiladigan jarayon ekanini ko‘ rsatadi [9]. Michel Foucaultning diskurs nazariyasi esa bilim va ma’noning ijtimoiy-tarixiy sharoitlarda ishlab chiqarilishini yoritib, konstruktiv talqinning diskursiv o‘ lchovini namoyon etadi [3].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot nazariy konseptual xarakterga ega bo‘ lib, unda shakl va mazmun dixotomiyasining ontologik talqini empirik eksperimentlar orqali emas, balki mavjud ilmiy nazariyalar va konseptual modellarning tizimli tahlili asosida o‘ rganiladi. Tadqiqot metodologiyasi til birliklarining mavjudlik maqomini aniqlashga qaratilgan bo‘ lib, shakl va mazmun munosabatini ontologik model sifatida izohlash imkonini beruvchi nazariy yondashuvlarni solishtirishni maqsad qiladi.

Tadqiqotning asosiy metodologik tayanchi konseptual modellashtirish usuli hisoblanadi. Ushbu metod orqali shakl va mazmun munosabati uchta nazariy paradigma – substansial, relatsion va konstruktiv yondashuvlar doirasida alohida modellar sifatida ajratildi. Har bir modelda shakl va mazmunning mavjudlik maqomi, ma’no manbai, barqarorlik darajasi va kontekstga bog‘ liqligi kabi ontologik parametrlar aniqlanib, ular yagona mezonlar asosida tavsiflandi. Bu yondashuv modellarni tavsiflashda subyektiv talqindan qochib, ularning ichki mantiqiy tuzilishini izchil tahlil qilish imkonini berdi.

Tadqiqotda qiyosiy-tahliliy metod muhim o‘ rin tutadi. Ushbu metod orqali uch ontologik model o‘ zaro solishtirilib, ularning shakl va mazmun munosabatini izohlashdagi nazariy imkoniyatlari hamda konseptual chegaralari aniqlanadi. Qiyosiy tahlil quyidagi asosiy mezonlarga tayangan holda amalga oshiriladi:

– shakl va mazmunning ontologik maqomi;
– ma’noning manbai va hosil bo‘ lish mexanizmi;
– semantik barqarorlik va o‘ zgaruvchanlik darajasi;
– kontekst, madaniyat va diskurs omillarining ta’siri;
– til tizimi va tafakkur o‘ rtasidagi munosabatning talqini.

Mazkur mezonlar asosida har bir yondashuvning lisoniy ma’noni tushuntirishdagi metodologik izohlash imkoniyatlari baholanadi hamda ularning o‘ zaro moslashuvchanlik darajasi aniqlanadi.

Shuningdek, tadqiqotda ma’no talqinini kontekstual va tizimli tahlil qilish usulidan foydalaniladi. Ushbu yondashuv, ayniqsa, relatsion va konstruktiv modellar doirasida ma’noning qaysi shartlar asosida shakllanishi va barqarorlashishini aniqlashga xizmat qiladi. Natijada shakl va mazmun o‘ rtasidagi munosabatning kontekst va ijtimoiy kelishuvlar bilan bog‘ liq chegaralari ochib beriladi.

Umuman olganda, tanlangan metodologiya shakl va mazmun munosabatini alohida nazariy pozitsiyalar yig‘ indisi sifatida emas, balki turli ontologik talqinlarda namoyon bo‘ ladigan, o‘ zaro bog‘ liq va bir-birini to‘ ldiruvchi konseptual hodisa sifatida tahlil qilish imkonini beradi.

NATIJALAR VA ULARNING TAHLILI

O‘ tkazilgan konseptual tahlil shakl va mazmun munosabatining ontologik talqini yagona nazariy mexanizm bilan izohlanmasligini ko‘ rsatadi. Tadqiqot natijalariga ko‘ ra, substansial, relatsion va konstruktiv yondashuvlar lisoniy belgining bir xil jihatini turlicha nomlash emas, balki shakl va mazmunning ontologik maqomini turli darajalarda belgilovchi mustaqil izohlovchi mexanizmlarni ifodalaydi. Shu sababli ushbu yondashuvlarning har biri ma’noning muayyan tomonlarini aniqlik bilan yoritadi, biroq ular alohida holda shakl va mazmun dixotomiyasining to‘ liq ontologik manzarasini qamrab ololmaydi.

Substansial model asosida olib borilgan tahlil shakl va mazmunning ontologik jihatdan farqlangan, biroq referensial va kognitiv bog‘ liqlik orqali birlashgan komponentlar sifatida talqin qilinishini ko‘ rsatdi. Ushbu yondashuvda mazmun ongda shakllangan konseptual tuzilma hamda tashqi reallik bilan bog‘ langan referensial tayanchga ega bo‘ lgan nisbatan barqaror birlik sifatida tushuniladi. Masalan, H.Putnam tomonidan ilgari surilgan semantik eksternalizm nazariyasida «suv» leksemasining ma’nosi faqat subyektning ichki idrok holati bilan emas, balki tashqi fizik muhitda mavjud bo‘ lgan H_2O substansiyasi bilan barqaror referensial bog‘ liqlik orqali belgilanishi asoslab beriladi. Ushbu yondashuvda ma’noning ontologik tayanchi nafaqat mental kontentda, balki tashqi real referentda ham mujassam ekani ko‘ rsatiladi [11, 223–227]. Shu jihatdan, substansial model referenti aniq bo‘ lgan leksik birliklar hamda barqaror semantik yadrosi mavjud kategoriyalarni tahlil qilishda yuqori izohlash imkoniyatiga ega ekanini namoyon qiladi. Biroq mazkur yondashuv ma’noning madaniy, metaforik va diskursiv kengayishlarini izohlashda cheklangan bo‘ lib, bu qatlamlarda ma’no referensiya orqali emas, balki dinamik ijtimoiy-kognitiv jarayonlar orqali shakllanadi.

Relatsion model doirasida olib borilgan tahlil ma’noning ontologik maqomi til tizimidagi farqlanishlar va munosabatlar orqali shakllanishini ko‘ rsatdi. Ushbu yondashuvda shakl va mazmun paradigmatik va sintagmatik aloqalar doirasida aniqlanadigan nisbiy pozitsiyalar sifatida namoyon bo‘ ladi. Relatsion yondashuv Ferdinand de Sossyur tomonidan ishlab chiqilgan lisoniy qiymat tushunchasiga tayangan holda shakllandi. Sossyur lisoniy birlikning ma’nosini

til tizimi doirasida boshqa birliklarga nisbatan egallagan o‘ rni va ular bilan hosil qiladigan farqlanishlar orqali izohlaydi. Shu nuqtai nazardan, ma’no til tizimidan tashqarida mustaqil holda mavjud bo‘ lmaydi, balki tizim ichidagi munosabatlar asosida aniqlanadigan nisbiy qiymat sifatida namoyon bo‘ ladi.

Mazkur tamoyilni tushuntirish uchun Sossyur shaxmat o‘ yini analogiyasidan foydalanadi. Uning fikricha, shaxmat donasining qiymati uning materiali yoki tashqi ko‘ rinishiga bog‘ liq emas, balki taxtadagi boshqa donalar bilan tashkil etadigan munosabatlar tizimi orqali belgilanadi [12, 88-89]. Donaning fizik holati o‘ zgarmagan holda, uning o‘ yindagi funksional qiymati umumiy konfiguratsiya va pozitsion munosabatlarga qarab o‘ zgarib boradi. Sossyur ta’limotiga ko‘ ra, xuddi shu mexanizm til tizimida ham amal qiladi: lisoniy birlikning qiymati til tizimidagi differensial munosabatlar tarmog‘ i doirasida aniqlanadi [12, 110-113]. Masalan, o‘ zbek tilida aka va uka leksemalari tashqi reallikda bir oiladagi erkak farzandlar o‘ rtasidagi qarindoshlik aloqasiga ishora qiladi. Biroq bu birliklarning ma’nosi real shaxslarning biologik mavjudligi bilan belgilanmaydi. Aka faqat uka ga nisbatan, ya’ni «yosh jihatdan kattalik» belgisi orqali ma’no kasb etadi; uka esa ayni tizimda «yosh jihatdan kichiklik belgisi» bilan aniqlanadi. Demak, ushbu birliklarning semantik qiymati til tizimidagi o‘ zaro farqlanish orqali shakllanadi. Xuddi shuningdek, amaki va tog‘ a leksemalarining ma’nosi ham biologik shaxslarga bevosita bog‘ liq emas. Har ikkala birlik ota-onaning aka-ukalarini anglatadi. Bu farqlanish qarindoshlik munosabatlarini til orqali aniq segmentatsiya qiluvchi relatsion tizim natijasidir. Ushbu birliklardan biri tizimdan chiqarilsa, ikkinchi birlikning semantik aniqligi ham izdan chiqadi.

Relatsion yondashuv sinonimiya, semantik qarama-qarshilik va leksik maydon doirasidagi farqlanish mexanizmlarini izohlashda yuqori metodologik samaradorlikni namoyon etadi. Biroq ayni model ma’noning kognitiv tajriba va madaniy bilimlar bilan bog‘ liq qatlamlarini cheklangan darajada qamrab olishi sababli real diskurs sharoitida ma’noning shakllanish jarayonini izohlash qo‘ shimcha nazariy yondashuvlarni talab qiladi.

Konstruktiv model doirasida olib borilgan tahlil ma’noning ontologik jihatdan jarayonli va yaratuvchan xususiyatga ega ekanini ko‘ rsatadi. Ushbu yondashuvda ma’no inson tafakkuri, madaniy tajriba va ijtimoiy-diskursiv amaliyotlar jarayonida shakllanadigan dinamik hodisa sifatida talqin qilinadi. Mazkur pozitsiya tilni kognitiv va madaniy jihatdan qayta tashkil etuvchi mexanizm sifatida tushunishga asoslanadi.

Konstruktiv yondashuvning nazariy poydevori Vilgelm fon Humboldt qarashlarida shakllangan bo‘ lib, unga ko‘ ra, til inson tafakkurini shakllantiradi va borliqni idrok etish jarayonida faol ishtirok etadi. Shu sababli ma’no tashqi reallikdan bevosita olinmaydi, balki til orqali konstruksiya qilinadi [5, 245–247]. Ushbu g‘ oya keyinchalik Edvard Sapir va Benjamin Li Vorf tomonidan ishlab chiqilgan til-tafakkur munosabati konsepsiyalarida izchil rivojlantirilgan [13, 212–214].

Psixolingvistik yo‘ nalishda konstruktiv model Lev S.Vigotskiy qarashlari bilan mustahkamlanadi. Vigotskiy tilni tafakkur va ijtimoiy tajriba o‘ rtasidagi asosiy vositachi sifatida talqin qilib, ma’noning inson ongida ijtimoiy muloqot va madaniy faoliyat jarayonida shakllanishini asoslab beradi. Bu yondashuvda ma’no individual ong mahsuli bo‘ lish bilan birga, ijtimoiy va madaniy tajribaga tayangan holda vujudga keladigan intersubyektiv hodisa sifatida qaraladi [14, 248–252].

Kognitiv semantika doirasida konstruktiv model J.Lakoff va M.Johnson tomonidan ilgari surilgan konseptual metafora nazariyasida o‘ zining empirik ifodasini topadi. Ushbu nazariyaga ko‘ ra, abstrakt ma’nolar insonning jismoniy tajribasi va madaniy konseptuallashish asosida metaforik yo‘ l bilan shakllanadi. Natijada, ma’no real obyektlarga bevosita bog‘ liq bo‘ lmay, balki inson tajribasining konseptual qayta ishlanishi mahsuli sifatida namoyon bo‘ ladi [8, 3-6].

Madaniy-semiotik yo‘ nalishda konstruktiv model Yuriy Lotman tomonidan ishlab chiqilgan semiosfera konsepsiyasi bilan boyitildi. Lotmanga ko‘ ra, til va ma’no individual belgilar yig‘ indisi emas, balki madaniy kodlar, tarixiy kontekstlar va diskursiv amaliyotlar orqali doimiy ravishda qayta tashkil etilib boradigan ochiq tizimdir. Shu bois, ma’no barqaror ontologik mohiyat emas, balki madaniy muhitda shakllanadigan va yangilanadigan jarayon sifatida tushuniladi [9, 21-27].

Masalan, o‘ zbek tilida *yo‘ l* leksemasi substansial yoki relatsion talqin doirasida jismoniy harakat makonini bildiruvchi birlik sifatida tavsiflanishi mumkin. Biroq turli diskurslarda ushbu birlik abstrakt va madaniy jihatdan konstruksiya qilingan ma’nolarda namoyon bo‘ ladi: *hayot yo‘ li*, *ilm yo‘ li*, *to‘ g‘ ri yo‘ ldan chiqmoq*. Bu holatlarda *yo‘ l* leksemasi bevosita tashqi referentga emas, balki inson tajribasi va madaniy bilimlar asosida shakllangan konseptual metaforalarga tayangan holda talqin qilinadi. Natijada ma’no obyektga emas, balki tafakkur jarayonida tashkil topgan konseptual modelga asoslanadi. Mazkur semantik mexanizm boshqa leksik birliklar misolida ham muntazam kuzatiladi. Jumladan, *og‘ ir* leksemasining qo‘ llanilishida ham konstruktiv mexanizm yaqqol namoyon bo‘ ladi. *Og‘ ir yuk* birikmasida mazkur sifat jismoniy vazn xususiyatini ifodalasa, *og‘ ir kunlar*, *og‘ ir vaziyat* kabi birikmalarda u psixologik va ijtimoiy tajribaga tayangan baholovchi ma’noni anglatadi. Bunday holatlarda ma’no tashqi obyektning bevosita xususiyati sifatida yoki faqat til tizimidagi qarama-qarshiliklar orqali izohlanmaydi, balki nutqiy vaziyatda subyektiv idrok va madaniy konvensiyalar bilan o‘ zaro bog‘ liq holda aktual mazmun kasb etadi. Natijada *og‘ ir* leksemasining baholovchi ma’nosi jismoniy tajribaga bilvosita tayangan holda, kontekstual qo‘ llanish jarayonida shakllanadi.

Konstruktiv model doirasida ma’no ijtimoiy-madaniy tajriba va ramziy konvensiyalar tizimi bilan uzviy bog‘ liq holda shakllanadi. Bu holat ramziy birliklarning semantik talqinida yanada ravshanlashadi. Masalan, oq rang o‘ zbek tilida fizik rang sifatida neytral birlik bo‘ lishi mumkin, biroq oq yo‘ l, oq ko‘ ngil kabi birikmalarda u axloqiy va ijtimoiy bahoni ifodalovchi ramziy birlikka aylanadi. Bunday semantik kengayish rangning fizik xususiyatidan bevosita kelib chiqmaydi, biroq aynan shu substansial tajribaga tayangan holda, madaniy qadriyatlar tizimida qayta talqin qilinishi natijasida shakllanadi. Shu jihatdan, bu yerda ma’no barqaror ontologik birlik sifatida emas, balki substansial tajriba va madaniy talqin o‘ rtasidagi uzviy bog‘ liqlikda vujudga keladigan konstruktiv hodisa sifatida talqin qilinadi.

Olingan natijalar shuni ko‘ rsatadiki, konstruktiv model metaforik kengayishlar, baholovchi birliklar va ramziy semantik ko‘ chishlarni izohlashda yuqori izohlash quvvatiga ega. Shu bilan birga, tahlil natijalari ushbu yondashuv doirasida semantik barqarorlik masalasi nisbiyligicha qolishini ham ko‘ rsatdi: ma’no diskursga kuchli bog‘ langani sari uning doimiy yadrosini aniqlash murakkablashadi. Shu sababli konstruktiv model ma’noning jarayonli tabiatini ochib berishda samarali bo‘ lsa-da, barqaror semantik mezonlarni belgilash uchun boshqa ontologik yondashuvlar bilan uyg‘ un holda qo‘ llanishni talab etadi.

Yuqoridagi yondashuvlar bir-birini inkor etuvchi nazariy pozitsiyalar emas, balki lisoniy ma’noning tashkil topish mexanizmlarini yorituvchi turli qatlamlar sifatida namoyon bo‘ ladi. Shu sababli ularning qiyosiy tahlili shakl va mazmun munosabatining ko‘ p darajali tabiatini aniqlashtirish imkonini beradi. Quyida bir leksik birlik misolida uch ontologik yondashuvning qiyosiy talqini ko‘ rishimiz mumkin:

Model	Misol: «Yulduz» leksemasi
Substansial model	«*yulduz*» – osmon jismining real mavjudligiga ishora qiladi. Lisoniy birlik faqat bu obyektni belgilash vositasi.
Relatsion model	«*yulduz*» – «oy», «quyosh», «sayyora» so‘ zlari bilan tizimdagi farq orqali ma’noga ega. Obyektning «o‘ zida» bo‘ lgan mohiyat emas.
Konstruktiv model	«*yulduz*» – turli madaniyatlarda turlicha konsept sifatida shakllanadi: astronomik obyekt, taqdir ramzi yoki badiiy timsol bo‘ lishi mumkin. Masalan, qadimiy Sharq madaniyatida «yulduz» faqat astronomik obyekt emas, balki bashorat, taqdir ramzi (astrologiyada).

Ko‘ rinib turibdiki, shakl va mazmun munosabatini izohlashda biryoqlama ontologik yondashuv yetarli emas. Substansial model ma’noning referensial va kognitiv tayanchini, relatsion model uning sistemaviy tashkil topishini, konstruktiv model esa madaniy va diskursiv shakllanishini yoritadi. Ushbu qatlamlar lisoniy jarayonda birgalikda namoyon bo‘ ladi.

XULOSA

Mazkur tadqiqot shakl va mazmun munosabatini tilshunoslikda keng qo‘ llanib kelayotgan strukturaviy va semantik talqinlar doirasida emas, lisoniy belgining mavjudlik asoslari bilan bog‘ liq ontologik masala sifatida ko‘ rib chiqish imkonini berdi. Shakl va mazmun munosabati til tizimida referensial-konseptual tayanch, sistemaviy farqlanish hamda madaniy-diskursiv shakllanishning uzviy uyg‘ unligi orqali namoyon bo‘ ladi. Bu qatlamlar bir-birini inkor etmaydi, aksincha, lisoniy faoliyat jarayonida o‘ zaro tutashgan holda amal qiladi. Shu jihatdan shakl va mazmunni mutlaq barqaror birliklar sifatida ham, sof nisbiy munosabatlar doirasida ham talqin etish ularning ko‘ pqatlamli ontologik tabiatini va ichki murakkabligini to‘ liq ochib bera olmaydi. Tadqiqot doirasida ilgari surilgan ko‘ p darajali ontologik yondashuv shakl va mazmun munosabatini barqarorlik va o‘ zgaruvchanlik, referensiya va tizim, kognitiv tajriba va diskursiv amaliyot o‘ rtasidagi bog‘ liqlikda talqin qiladi. Shu ma’noda, ushbu yondashuv semantik invariant, sinonimiya hamda shakl-mazmun asimmetriyasi kabi hodisalarni tahlil qilishda metodologik jihatdan mos nazariy asos sifatida qaralishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Aristotle. The Complete Works of Aristotle: The Revised Oxford Translation. Vol. 1. Edited by Jonathan Barnes; translated by various. Princeton, NJ: Princeton University Press, 1984.

2. Eco U. A Theory of Semiotics. Bloomington: Indiana University Press, 1976.

3. Foucault M. The Archaeology of Knowledge & The Discourse on Language. Translated by A. M. Sheridan Smith. New York: Pantheon Books, 1972.

4. Gadamer H. Truth and Method. 2nd revised edition. New York: Continuum, 2004.

5. Humboldt W. On Language: The Diversity of Human Language Construction and Its Influence on the Mental Development of the Human Species. Translated by Peter Heath; Cambridge, UK: Cambridge University Press, 1999.

6. Jackendoff R. Foundations of Language: Brain, Meaning, Grammar, Evolution. Oxford: Oxford University Press, 2002.

7. Jakobson R. Selected Writings II: Word and Language. The Hague: Mouton, 1971.

8. Lakoff G., Johnson M. Metaphors We Live By. Chicago: University of Chicago Press, 1980.

9. Лотман Ю.М. Внутри мыслящих миров. Человек – текст – семиосфера – история. – М.: «Языки русской культуры», 1996.

10. Plato. Cratylus. In: Plato: Complete Works. Edited by John M. Cooper. Indianapolis: Hackett Publishing Company, 1997.

11. Putnam H. «The Meaning of 'Meaning' .» In: Mind, Language and Reality: Philosophical Papers, Vol. 2. Cambridge: Cambridge University Press, 1975.

12. Saussure F. Cours de linguistique générale. Paris: Payot, 1916.

13. Sapir E., Whorf B. Language, Thought, and Reality: Selected Writings of Benjamin Lee Whorf. Edited by John B. Carroll. Cambridge, MA: MIT Press, 1956.

14. Выготский Л. Мышление и речь. Москва: АСТ; Астрель, 2011.